

I. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3719,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 67932 kishiga yoki 1,8 foizga ko'paydi.


Doimiy aholi soni

(2018 yil 1 yanvar holatiga, ming. kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		Jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat	3719,6	1867,2	1852,4	1391,4	2328,2
<i>shaharlar</i>					
Samarqand	529,9	256,1	273,8	529,9	-
Kattaqo'rg'on	87,1	43,3	43,7	87,1	-
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	152,7	76,7	76,1	60,6	92,1
Bulung'ur	178,9	91,1	87,8	40,2	138,7
Jomboy	163,1	82,3	80,7	37,0	126,1
Ishtixon	241,9	121,6	120,3	66,9	175,0
Kattaqo'rg'on	261,6	132,4	129,1	50,2	211,4
Qo'shrabot	125,4	64,0	61,3	12,1	113,3
Payariq	238,7	123,0	115,8	70,4	168,3
Pastdarg'om	338,8	169,5	169,3	89,8	249
Paxtachi	138,4	68,4	70,0	27,2	111,2
Samarqand	241,1	121,8	119,3	14,5	226,6
Narpay	204,9	104,2	100,7	62,3	142,6
Nurobod	143,8	72,1	71,7	16,8	127
Tayloq	191,7	96,7	95,0	23,5	168,2
Urgut	481,6	243,9	237,7	202,9	287,7

2018 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni

(ming kishi)




2017 yilning yanvar-dekabrida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har ming aholiga, nisbatan</i>	
	2016y.	2017y. ¹⁾	<i>o'sish, kamayish</i>	2016y.	2017y. ¹⁾
Tug'ilganlar	88295	89822	1527	24,4	24,4
O'lganlar	16146	16712	566	4,5	4,5
Tabiiy o'sish	72149	73110	961	19,9	19,6
Nikohlar	34084	38307	4223	9,4	10,4
Ajralishlar	3311	4007	696	0,9	1,1

¹⁾dastlabki ma'lumot

2017 yilning yanvar-dekabrida aholining tabiiy harakati

(kishi)



Tugʻilish darajasining koʻpayishi viloyatning Nurobod (24,5 dan 25,4 promillega), Kattaqoʻrgʻon (22,8 dan 23,6 ga), Samarqand (22,5 dan 23,2 ga), Bulungʻur (24,5 dan 25,1 ga), Jomboy (27,5 dan 28,1 ga), Ishtixon (24,9 dan 25,5 ga) va Qoʻshrabot (25,9 dan 26,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Oʻlim darajasi. 2017 yilning yanvar-dekabrida vafot etganlar soni 16712 kishini tashkil qildi va 2016 yilning shu davriga (16146 kishi) nisbatan 566 taga koʻpaydi. Oʻlim koeffitsiyenti esa 4,5 promilleni tashkil qildi (2016 yil yanvar-dekabrda 4,5 promille).

Oʻlganlar sonining koʻpayishi Oqdaryo (3,7 dan 4,3 promillega), Payariq (4,6 dan 5,0 ga), Nurobod (3,9 dan 4,2 ga), Jomboy (4,4 dan 4,7 ga), tumanlari Kattaqoʻrgʻon (5,3 dan 5,7 ga) va Samarqand (5,4 dan 5,6 promillega) shaharlarida kuzatildi.

Oʻlganlar umumiy sonidan 60,0 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 8,2 foizi - oʻsma kasalliklari, 6,4 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 5,9 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 4,9 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,6 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 13,0 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Oʻlganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi

(2017 yilning yanvar-dekabrda, foizda)



Nikoh va ajralishlar. 2017 yilning yanvar-dekabrda FHDYO bo'limlarida 38307 ta nikoh va 4007 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 10,4 ga nikoh (2016 yilning tegishli davrida – 9,4 ga) va 1,1 ga ajralishlar (2016 yilning tegishli davrida 0,9 ga) to'g'ri keldi.

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10326 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 15476 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 5150 kishiga (2016 yilning shu davrida minus 4423 kishi) teng bo'ldi.

2017 yil yanvar-dekabrda aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2016y.	2017y.	2016y.	2017y.	2016y.	2017y.
Viloyat	10273	10326	14696	15476	-4423	-5150
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	1426	1984	3746	3112	-2320	-1128
Kattaqo'rg'on sh.	292	88	572	718	-280	-630
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	623	665	543	540	80	125
Bulung'ur	879	881	951	1130	-72	-249
Jomboy	688	742	569	565	119	177
Ishtixon	718	635	800	952	-82	-317
Kattaqo'rg'on	738	894	1012	1012	-274	-118
Qo'shrabot	440	559	674	924	-234	-365
Payariq	92	142	1002	1197	-910	-1055
Pastdarg'om	882	912	664	696	218	216
Paxtachi	410	402	973	1167	-563	-765
Samarqand	1205	643	816	730	389	-87
Narpay	666	604	654	737	12	-133
Nurobod	69	85	482	480	-413	-395
Tayloq	656	614	456	490	200	124
Urgut	489	476	782	1026	-293	-550

Eng katta minus qoldiqlar Samarqand (minus 1128) va Kattaqo'rg'on (minus 630) shaharlarida hamda Payariq tumani (minus 1055), Paxtachi (minus 765), Urgut (minus 550), Nurobod (minus 395), Qo'shrabot (minus 365), Ishtixon (minus 317), Bulung'ur (minus 249), Narpay (minus 133) va Kattaqo'rg'on (minus 118) tumanlarida kuzatildi.

2017 yilning yanvar-dekabrida aholining tabiiy harakati

(har 1000 kishiga)




Mehnat resurslarining soni dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,0 foizga ko'payib, 2081,0 ming kishini yoki viloyat doimiy aholisining 55,9 foizini tashkil qildi.

2017 yil yanvar-dekabrda bandlikka ko'maklashish markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab, 28052 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat qilganlar Samarqand shahri (3841 kishi), Pastdarg'om tumani (3070 kishi), Urgut (2106 kishi), Ishtixon (2016 kishi), Payariq (1953 kishi), Samarqand (1883 kishi), Jomboy (1607 kishi) va Kattaqo'rg'on (1514 kishi) tumanlarida ko'p.

Bandlikka ko'maklashish markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni

(kishi)



Bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 25410 nafari (barcha murojaat qilganlarning 90,6 foizi) ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Narpay (murojaat etganlarning 97,8 foizi), Kattaqo'rg'on (97,6 foiz), Tayloq (97,5 foiz), Nurobod (97,4 foiz), Samarqand (97,0 foiz), Bulung'ur (96,7 foiz), Payariq (96,3 foiz), Ishtixon (96,3 foiz) va Oqdaryo (78,7 foiz) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi.